

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA "SHAXS" TUSHUNCHASI

Tillaboyeva Gulruh Soxibbek qizi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona davlat universiteti,

ANNOTATSIYA

Maqolada birlamchi manbalar, ilmiy adabiyotlar, internet materiallari va ko'ra Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan shaxs tushunchali birliklarni to'plash, ularning semantik tasnifini yaratish, shuningdek, bu birliklarning badiiy matndagi uslubiy xususiyatlarini o'rganish ot so'z turkumining semantik taraqqiyotini aniqlash masalasiga e'tibor qaratilgan.

- Alisher Navoiy she'riyati misolida shaxs arxisemali birliklarni semantik jihatdan tasnif etildi;*
- g'azallarda qo'llangan shaxs tushunchali leksik birliklarning stilistik-semantik xususiyatlarini aniqlandi;*
- g'azallarda qo'llangan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari teonimlar, agionimlar, tarixiy va afsonaviy shaxs nomlari, badiiy antroponimlar va taxalluslar doirasida tadqiq etildi;*
- Navoiy she'riyati misolida shaxs otlarining tarixiy xususiyatlari aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *Shaxs, semantika, leksik birlik, leksema, denotativ ma'no, sheva, termin, sema, fleksiya, somatik birlik, ozoda, metaforik, mifonim, mifologik.*

ABSTRACT

The article is based on primary sources, scientific literature, Internet materials and the collection of conceptual units used in the poetry of Alisher Navoi, the creation of their semantic classification, as well as the study of the methodological features of these units in a literary text. attention is paid to the definition of the semantic development of the category.

- On the example of Alisher Navoi's poetry archetypal personality units are semantically classified;*
- stylistic and semantic features of lexical units used in poems are revealed;*
- the methodological features of anthroponyms used in gazelles were studied in the context of theonyms, ageonyms, names of historical and mythological characters, artistic anthroponyms and nicknames;*
- The historical features of personal names are revealed on the example of Navoi poetry.*

Keywords: *personality, semantics, lexical unity, lexeme, denotative meaning, dialect, term, seme, inflection, somatic unity, pure, metaphorical, mythological.*

АННОТАЦИЯ

Статья основана на первоисточниках, научной литературе, материалах Интернета и сборе понятийных единиц, используемых в поэзии Алишера Навои, создании их семантической классификации, а также изучении методологических особенностей этих единиц в художественный текст. внимание уделяется определению смыслового развития категории.

- *На примере поэзии Алишера Навои проводится семантическая классификация архетипических единиц личности;*

- *выявляются стилистические и семантические особенности лексических единиц, используемых в стихотворениях;*

- *изучены методологические особенности антропонимов, используемых в газелях, в разрезе теонимов, агеонимов, имен историко-мифологических персонажей, художественных антропонимов и прозвищ;*

- *Раскрываются исторические особенности личных имен на примере навоийской поэзии.*

Ключевые слова: *личность, семантика, лексическое единство, лексема, денотативное значение, диалект, термин, сема, флексия, соматическое единство, чистое, метафорическое, мифологическое.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida rivojlana boshlaganligi, fan va madaniyatning millat manfaati uchun xizmat qilmaydigan mafkura girdobidan qutulganligi, millatga bo'lgan hurmatning haqiqiy namunasi tarzida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o'zbek tilshunosligi hamda tilshunos olimlari oldiga g'oyat muhim va mas'uliyatli vazifalarni qo'yib kelmoqda. Hozir dunyo juda tez rivojlanayotgan bir paytda, har bir sohaga yangicha yondashish davr talabiga aylandi. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi". Shu nuqtayi nazardan bugungi o'zbek tilshunosligi fani hal qilishi zarur bo'lgan masalalar nafaqat xalq manfaati, shuningdek, mustaqil davlatning har tomonlama yuksalishi uchun xizmat qilishga qaratilmog'i kerak. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli; 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Pf-6084-sonli; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori, 20.10.2020. 07 1395-son mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilm-fanni faol bir sistemaga aylantirish borasidagi konsepsiyalari bevosita tilshunoslik faniga ham daxldor bo'lib, o'zbek tilshunosligida hozirgi kunda yangi-yangi tadqiq usullarining qidirilishi ana shu talabdan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday degan: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹.

Buyuk shoir va mutafakkir, atqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, er yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

"Shaxs" arxisemali leksemalar boshqa leksik birliklardan "shaxs" umumiy semasi asosida ajratiladi. Shaxs nomlari insonni turli belgilar egasi sifatida ko'rsatadi. Bu guruhdagi leksik birliklar esa o'z ichida boshqa-boshqa farqlovchi belgilar asosida kichik leksik guruhlarga ajratiladi. Masalan, 'mashg'ulot' belgisiga ko'ra kasb bildiruvchi, 'yosh' belgisiga ko'ra yosh bildiruvchi guruhlarga va boshqalarga bo'linadi.

Shaxs nomlarining birinchi bo'linishda denotativ ma'nosiga, ularning doimiy belgisiga amal qilinishini va 'mavjudlik', 'afsonaviylik belgisiga tayangan holda moddiyan mavjud bo'lgan va afsonaviy shaxs nomlariga ajratish kerakligi ta'kidlanadi².

¹ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент.: Шарқ, 2017.-Б.29.

² Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): DDA. Тошкент, 1999.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Alisher Navoiyning “Navodir ush-shabob” devonidan to‘plangan misollar asosida aytish mumkinki, bu birliklarning qo‘llanishida o‘ziga xos jihatlar bo‘lib, matn semantikasini shakllantirishda muhim leksik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular matnning yetakchi komponenti sifatida kommunikativ va ekspressiv xususiyatlarni namoyon etadi.

Alisher Navoiyning “Navodir ush-shabob” devonidan to‘plangan misollar asosida “shaxs” tushunchasini ifodalovchi birliklarning quyidagi turlarini farqlashga harakat qildik.

Shaxs tushunchasini ifodalovchi asosiy leksemalar sifatida ‘qavm-qarindoshlik’ va ‘qarddonlik’, ‘yosh’ semasiga ko‘ra: *odam, farzand, ota, ona, tifi, atfol, o‘g‘il, qiz, mehmon, do‘st, oshno, yigit, qari* kabi.

Turkolog olimlarning tadqiqot natijalariga ko‘ra ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichlarida qarindoshlik terminlari umumiy bir tushuncha (katta, ulug‘, buyuk, ayol va erkakligini farqlamay) ma‘nosini ifodalab, so‘ng hayot taraqqiyotining ma‘lum davrlaridan so‘ng differensiasiyalasha borgan. Jumladan, *ota* termini o‘zbek adabiy tili va uning shevalarida ham keng qo‘llanuvchi ota terminidan anglatgan ma‘nosi bilan farq qilmagan holda, fonetik farqi bilan ajralib turadi³. Hozirgi turkiy tillarning ko‘pchiligida bosh unli ham, so‘nggi unli ham qadimgi turkiy (a) bilan *ata* deb talaffuz etiladi. Oltoy, xakas tuva tillarda esa t/d jaranglashgan *ada* varianti bilan ishlatiladi. Hozirgi kun nuqtayi nazaridan qaralganda, *dada* (katta doda) termini anglatgan ma‘noda katta ma‘nosi yo‘qdek tuyuladi. Aslida o‘zbek tilida ta-da so‘zlarining katta ma‘nosini anglatish hodisasi hozir ham mavjud: daashqazan – d(a)ashqazan, taag‘ara – t:(a)ag‘ara. Hatto Surxandaryo o‘zbek shevalarida uning jaranglashmagan ta varianti saqlanib qolgan: tasandiq–katta sandiq.⁴ Ata, ada, dada variantlari bilan tota so‘zi asosida yaratilgan. Tarixan tota so‘zlari qarindoshlik munosabatini ifodalamay, katta, ulug‘, buyuk ma‘nolarini anglatgan va yillar osha qarindoshlik termini maqomini olgan⁵.

Hunar, kasb-kor yoki mashg‘ulot nomlari vositasida shaxs tushunchasining ifodalanishi: *sayyod, jallod, ayoqchi, mug‘anniy, mudarris, munajjim, tabib*

‘Mashg‘ullik’ semasi yasama otlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Kasb-hunar otlarining ichida arab tilidagi shaxs otlari yasalishi yetakchilik qiladi: a) *mu-* old qo‘shimchasi narsa otlariga qo‘shilib, shaxs otlari yasalgan. *Mudarris, mug‘anniy,*

³ Решетов В.В. Наманганском говоре узбекского языка. 1953. –С. 216-218.

⁴ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. –М., 1974. –С.56.

⁵ Саидова М. Ота терминининг этимологияси//Ўзбек филологияси ва уни ўқитишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани. ФарДУ, 2013.-Б.72.

musavvir, munajjim singari; b) *sayyod* soʻzida esa fleksiya hisobiga shaxs tushunchali ot yasalganligini koʻrishimiz mumkin; s) *mugʻbacha* leksemasi esa *mugʻ* (forscha) va *bacha* (forscha) soʻzlarining qoʻshiluvidan hosil qilingan qoʻshma ot sanaladi. *Mugʻ* forscha soʻz boʻlib, `majusiy`, `otashparast`, `oʻtga choʻqinuvchi`; `mayfurush` degan maʼnolarni anglatadi. Demak, *mugʻbacha* `soqiy bola` maʼnosida qoʻllanadi; d) *ayogchi* yasalmasini esa *asos(narsa-buyum oti)chi* koʻrinishida qoliplash mumkin. *Ayogchi, ayogʻchi* – may quyuvchi, soqiy, kosagul.⁶

Martaba va naslu nasab, moddiy holat ifodalaydigan birliklarda shaxs tushunchasining ifodalanishi. Gʻazallarda bunday otlar talaygina. Bular tarkibiga *shoh, sulton, gado* kabilar.

Gʻazallarda inson taʼna aʼzolarining nomlari ham butunning qismi sifatida `shaxs` semasini namoyon etadi.

Mazkur baytlarda koʻz leksemasi *koʻzi koʻziga tushmoq, koʻz solmoq* iboralari tarkibida somatik birlik sifatida qoʻllanmoqda.

Otlashgan soʻzlar vositasida `shaxs` tushunchasining ifodalanashi: *hamroh, bedor, olifta, oʻluk, shoʻx, olifta*

Forsiy izofa vositasida shaxs tushunchasining ifodalanishi. Bunda birikmaning birinchi komponentigina shaxs oti bilan ifodalangan boʻladi. Baʼzan hayvon va oʻsimlik nomi ham boʻlishi mumkin. Bunday hollarda metaforik maʼno yaqqol namoyon boʻladi: *qotili zamona, sheri gardun, gʻaribi notovon, shoʻxi nozanin, sarvi gulandom* kabi.

Shaxs tushunchasini ifodalovchi afsonaviy nomlar – mifonimlar. Bunday otlar qatorida pari leksemasi etakchilik qiladi. Gʻazallarda *paripaykar, parivash, pariroy, huri paripaykar, pariy, pariyu hur, huri pariyzodim* shakllarida uchratish mumkin. Bundan tashqari, *maloymka, insu jon, dev* kabi leksemalar ham afsonaviy noreal tushunchalarni ifodalab keladi. Bu kabi birliklarning qoʻllanishida ham bir qator uslubiy xususiyatlar koʻzga tashlanadi: *paripaykar, pariyroʻyda* qiyos; *huri paripaykarda* kuchaytiruv; *pariyda* tenglash; *huri pariyzodda* zurriyod tushunchalari namoyon boʻladi.

Baʼzi bir mifologik obrazlar ongimizda ayol yoki erkak qiyofasida gavdalangani bois ular jins tushunchasini ifodalaydi. Masalan, *pari, hur, malak* kabi birliklar tasavvurimizda ayol qiyofasini gavdalandiradi. Navoiy gazallarida afsonaviy shaxs nomlari ichida *pari* leksemasining qoʻllanish chastotasi ancha yuqori. *Pari* soʻzi qoʻllangan baytlarda *devona* va *telba* singari shaxsning ruhiy holati bilan bogliq belgining substantlashishi hisobiga ifoda topgan, shuningdek, tahlil etilayotgan

⁶ Навоий асарлари луғати. I томлик. –Тошкент: Санъат ва адабиёт нашриёти, 1972. 32-б.

leksema bilan jinsiy oppozitsiyadagi shaxs otlari ham ifoda etiladi. Uchinchi baytda qo‘llangan telbalik oti holatni nomlasa-da, aksariyat bu so‘z g‘azallarda shaxs semasini namoyon etadi.

O‘TILda izohlanishicha, *pari* – *sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan, juda go‘zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz; go‘zallik ramzi*⁷. Izohdan ko‘rinib turibdiki, bu so‘z ma‘nosiga ko‘ra ajina, alvasti so‘zlaridan farqli ravishda go‘zal, yaxshiliklarga yetaklovchi, yomonliklardan saqlovchi xususiyatlarga ega. Shunday bo‘lsa-da, Navoiy g‘azallaridagi baytlar tahlilidan ko‘rinadiki, *pari* ins-jinsdan saqlovchi emas, balki aql-hushni oladigan, sehr-u joduga ega mifologik timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga baytdagi telba va devona so‘zlari ham ishora qilib turibdi. Lug‘atda berilganidek, *pariga* emas, balki *farishtaga* yuqoridagi izoh birmuncha mos keladi.

Quyidagi misolda esa *pari* so‘zi malaksiymo epiteti bilan qo‘llangan. Bu o‘rinda uning ta‘siri doirasidagi subyekt son jihatdan ko‘payadi. Natijada parining oshiqalar ruhiyatiga ta‘siri ham ancha kuchsizlanadi. Har galgidek matnda *devona* va *telba* so‘zlari emas, ulardan belgi jihatdan quyiroq pog‘onada turuvchi *hayronidur* leksemasi qo‘llanadi. Jumladan:

*Ul malaksiymo pariykim, xalq aning hayronidur,
Jonlar oshubi vale oshufta jonim jonidur*(G‘S, № 188).

Pari forscha so‘z bo‘lib, mifologiyada juda go‘zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz, go‘zallik ramzi⁸. Quyidagi misolda esa *pari* leksemasi xuddi g‘arb mifologiyasidagi singari ‘qanot’ semasini namoyon qiladi.

Hur va *malak* so‘zlari ham afsonaviy asosga ega, noreal shaxs tushunchasini ifoda etadi. *Hur* arabcha so‘z bo‘lib, islom an‘anasi va Qur‘onga ko‘ra taqvorlar bilan birgalikda jannatda yashaydigan, jismoniy va ma‘naviy kamchiliklardan xoli bo‘lgan nihoyatda go‘zal qiz(lar)⁹.

*Huru jannatdin murodim davlati diydor erur,
Yorsiz bog‘-u kanizi besh emastur ulu bu.*(NSH)
Malak aynan farishta. *Farishta* [forscha so‘z bo‘lib, malak, hur, g‘ilmon]

⁷ ЎТИЛ. III жилд. Т.: “ЎМЭ”, 2007 й. –Б.222

⁸ ЎТИЛ. –Тошкент: ЎМЭ, 2007. –Б.222

⁹ ЎТИЛ. 5-жилд. –Тошкент: ЎМЭ, 2008. –Б.562.

Islomda va ba'zi boshqa dinlarda xudoning amrini bajaruvchi g'ayritabiiy mavjudot; malak(farishtalar son-sanoqsiz bo'lib, har biri ma'lum vazifa bajaradi).

Kimki aning bir malaksiymo pariyvash yori bor,
Odamini bo'lsa, *pariy birla malakdin ori bor.*(NSH, № 181)

Aytish mumkinki, *pari* mifologik tushuncha, *malak*, *hur*, *g'ilmon*, *farishta* esa diniy tushuncha. Bu o'rinda *hur* taqvodorlarning jannatdagi hamrohlari, *farishta* va *malak* leksemalari esa aynan bir tushuncha ifodalaydi va ular Allohning amrini bajaruvchilardir. Shunday bo'lsa-da, bu birliklar she'riy matnda real shaxs ifodasiga ega bo'ladi. Ko'proq go'zallik timsolida yor shaxsiga nisbat beriladi.

Shaxs tushunchasining ko'chimlar vositasida ifodalanishi.

Metafora yunoncha – o'tkazish, ko'rish iz; xususiyatni obyektidan obyektga ularning assotsiativ aloqasi, subyektiv ravishda qabul qilingan o'xshashligi asosida o'tkazish. Badiiy asarlarda metafora obyektlarni tasvirlashda, ularning nozik xususiyatlarini ta'kidlash, g'ayrioddiy nuqtayi nazardan taqdim etish uchun ishlatiladi.

Aksariyat odamlar metaforani she'riy va ritorik ifoda vositasi sifatida qabul qilishadi, kundalik muloqot sohasiga qaraganda ko'proq g'ayrioddiy tilga murojaat qilishadi. Odamlar ko'pincha metaforani tabiiy tilning namoyon bo'lishidan biri deb bilishadi. Biroq metafora butun kundalik hayotimizga singib ketgan. Bu nafaqat tilda, balki fikrlash va harakatda ham namoyon bo'ladi.

Sinekdoxa (yun. synekdoche — birga nazarda tutmoq, birga o'ylamoq) — metonimiya (majoz)ning ko'rinishlaridan biri; S.da ham ma'no ko'chishi o'xshashlik, bog'liklikka asoslansa-da, bu yerda ko'chish obyektlari o'rtasidagi miqdoriy belgi yetakchilik qiladi; butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan va, aksincha, qism nomini butun narsaning nomi bilan atash, ko'plik sondagi so'z o'rniga birlik sondagi so'zni qo'llash yoki aksincha ishlatish, ba'zan jins-tur munosabatidagi so'zlarning bir-biri o'rnida qo'llanishi va boshqalar.

O'zbek tili leksikasi, ya'ni lug'at boyligi doimo taraqqiyotda bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida rivojlanadi va taraqqiy etadi. Ana shu o'zgarish va taraqqiyot natijasi o'laroq tilimizning leksik qatlami yangi birliklar bilan boyib boradi. O'zbek tili leksikologiyasining ma'lum bir qismini tashkil etgan o'simlik nomlari ham bundan mustasno emas. Ushbu soha terminologiyasi, avvalo, o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanib kelayotgan bo'lsa, ikkinchidan tashqi omil ham samarali ta'sir etib kelyapti.

G'azallarda shaxs tushunchasi so'zning konnotativ ma'nosida ham namoyon bo'ladi. Bunday birliklar metafora, sinekdoxa va metonimiya asosida yuzaga keladi. Jumladan:

A) metafora asosida shaxs tushunchasining voqelanishi:

Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun xizmat qiladigan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ma'no ko'chish usullari ko'chimlar yoki troplar nomi bilan umumlashtiriladi¹⁰ va ular filologiya ilmida turlicha nomlanadi: badiiy til vositalari, tasviriy vositalar, ifoda-tasviriy vositalar, tilning maxsus tasviriy vositalari kabi. E.Ibragimova tilning badiiy-tasvir vositalarini shakliy va mazmuniy jihatdan uch xil tasnif etishni¹¹ va bu tasnifning dastlabki guruhiga shakl bilan, keyingi guruhiga ma'noning ko'chishi bilan bog'liq, so'nggi guruhiga esa ham shakl, ham mazmun bilan aloqador tilning badiiy-tasvir vositalarini kiritishni lozim topadi.

Badiiy-tasvir vositalari badiiy matnni, ayniqsa, she'riy matnni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va ular hamma vaqt filologlar uchun qiziqarli tadqiqotlar manbai bo'lib qolaveradi¹². Mazkur vositalar troplar nomi ostida hatto Aristotelning mashhur "Poetika" asarida ham o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning juda qadimiyligini ko'rsatadi.

Ko'chimlar, odatda, she'riy nutqni boyitadi, unda yangi mazmunni ifodalovchi yangi so'z yoxud so'z birikmasini yaratadi, shoirning tasvir obyektiga munosabatini ifodalashga imkoniyat yaratadi. Shoir ko'chimlar vositasida tasvir obyektni individuallashtiradi va uni yanada aniqroq-yorqinroq ochadi: kitobxon u haqda obrazli tasavvurga ega bo'ladi¹³.

Tilshunoslik ilmida ko'chma ma'no ifodalashning uch turi – *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa* (J.Maruzo)¹⁴; olti turi — *metafora*, *vazifadoshlik*, *emotsionallik*, *metonimiya*(*sinekdoxa uning tarkibiga kiritiladi*), *xalq etimologiyasi*, *aloqadorlik* (L.A.Bulaxovskiy)¹⁵; ikki turi — *metafora* va *metonimiya* (K.A.Levkovskaya)¹⁶; to'rt turi – *metafora*, *metonimiya*, *evfemizm*, *giperbola*

¹⁰ Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Т. Муродов асарлари асосида). НДА. -Т., 2007. –Б.23.

¹¹ Ибрагимова Э. Бадий тасвир воситаларининг номланиши хусусида баъзи мулоҳазалар//Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 2009, № 2, -Б.90.

¹² Менглиев С.Шеърий контекстда сўзнинг бадий функцияси.Т.,1985; Йўлдошев М.М.Чўлпоннинг бадий тил маҳорати. Фил.фан.номз. дисс....автореф. -Т., 2000.

¹³ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: "Ўзбекистон", 2002.-Б.326.

¹⁴ Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. -М., 1960.

¹⁵ Булаховский Л.А. Введение в языкознание, ч. II, стр. 57-68.

¹⁶ Левковская К.А. Лексикология немецкого языка. -М., 1956, стр. 45-47.

(A.M.Rayevskaya)¹⁷; uch turi – o'xshashlik(*metafora*), yondoshlik(*metafora*), vazifadoshlik (N.M.Shanskiy)¹⁸ hodisalari farqlanadi. Aksariyat ishlarda sinekdoxa metonimiyaning bir turi sifatida qayd etiladi (D.N.Shmelyev)¹⁹ yoki alohida tur sifatida ajratiladi (A.A.Reformatskiy)²⁰. O'zbek tilshunosligida ko'ema ma'no hosil qiluvchi hodisalar tasnifi A.A.Reformatskiy tasnifiga muvofiq keladi²¹.

Metafora (yunoncha *metaphora*- ko'chirish) demakdir;

Metonimiya (yunoncha *metonymia*– qayta nomlash) demakdir;

Sinekdoxa (yunoncha *synecdoche* – birgalikda anglash) demakdir;

Funksiyadoshlik (ruscha vazifadoshlik) demakdir.

Ikki predmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish troplarga asos qilib olinadi. Ya'ni predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun boshqa bir predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi²².

O'xshatish, metafora (yashirin o'xshatish)²³, jonlantirish (metaforaning bir ko'rinishi)²⁴ kabi ko'chimlarning hammasi ham o'xshatishga asoslanadi.

Metaforaning mohiyati va uning tabiatiga berilgan ta'riflarga nazar tashlasak, ularni asosan uch guruhga bo'lish mumkinligini ko'ramiz: 1. Metafora–nom ko'chishning (deyarli) har qanday usuli (Arastu,E.Kassirer).2.Metafora–qisqargan o'xshatish (A.A.Potebnya va uning izdoshlari). 3. Metafora– nom ko'chishning alohida bir turi (N.D. Arutyunova va o'zbek tilshunoslari)²⁵.

Metaforaning mohiyati va uning tabiatiga berilgan ta'riflarga ko'ra u nom ko'chishning har qanday usuli; qisqargan o'xshatish; nom ko'chishning alohida bir turi²⁶. O'zbek tilshunosligida uchinchi jihat e'tirof etiladi.

Metaforik asosda nom ko'chish deganda, odatda, o'zaro munosabatga kirishuvchi so'zlarning semantik qurilishida o'zgarish yuz beradi va so'z birikmasi komponentlari o'rtasida semantik vazifalarning qayta taqsimoti, o'zaro ta'sirlashuvi natijasida unsurlardan biriga yangi ma'no berilishi kuzatiladi. Metaforik nomlashda narsalarning o'xshashligi inobatga olinadi.

¹⁷ Raycvska N. English Lexicology. Kuib, 1961, p. 102-123.

¹⁸ Шанский Н.М. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. -М., 1959, стр. 153.

¹⁹ Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. -М., 1964, стр. 57.

²⁰ Реформатский А.А. Введение в языкознание. стр. 54-60.

²¹ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Т.: Фан, 1975. 54-б.

²² Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. -Т., Фан,1977. 13-б

²³ Ўша китоб, 236 -б.

²⁴ Сувонова С. Метафоралар таснифига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2010, №6.

²⁵ Қобулжонова Г. Метафора моҳияти ва турлари// Ўзбек тили ва адабиёти. 2007, № 6.

²⁶ Қобулжонова Г. Метафора моҳияти ва турлари// Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2007, № 6.

O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtai nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalandiradi.

Professor M.Mirtojiyev metaforaning hosila ma'noni voqelantirishdagi o'rnini shunday baholaydi: "Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi"²⁷. XX asrning so'nggi choragida metafora hodisasi inson kognitiv faoliyati bilan bog'liqligi haqidagi fikrlar ilgari surildi. Mazkur qarashlarning shakllanishi J.Jeyns, E.Kassirer, J.Lakoff, M.Jonson kabi olimlar nomi bilan bog'lanadi. Noma'lum va notanish predmetni tasavvur qilishda bizga juda yaxshi tanish bo'lgan hamda sensor hissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lgan obrazni tanlay olish o'rinli metaforani yuzaga keltiradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir (M.Jonson).

D.Xudoyberganova kognitiv metaforalarni til sathiga ko'ra tasniflashni ma'qul topadi: so'z shaklidagi metaforalar, so'z birikmasi shaklidagi metaforalar, gap shaklidagi metaforalar, mikromatn shaklidagi metaforalar²⁸.

Sinekdoxa asosida shaxs tushunchasining voqelanishi Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko'chirilishi *sinekdoxa yo'li bilan ko'chirish* deyiladi Sinekdoxa yunoncha– synecdoche, ya'ni `nazarda tutish` demakdir.

Sinekdoxa yo'li bilan ko'chirish *metonimiya yo'li bilan ko'chirishning bir ko'rinishi* deb yuritiladi. N.M.Shanskiy ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalarni uch turga ajratib ko'rsatgan: 1) o'xshashlik (metafora); 2) yondoshlik (metonimiya); 3) vazifadoshlik.

D.N.Shmelev ham ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalarni xuddi N.M.Shanskiyga o'xshab uch turga ajratadi. Ammo D.N.Shmelev sinekdoxa

²⁷ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Т., 2010, -Б.94

²⁸ Худойберганова Д. Матнинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 2012, 1-сон. – Б.36.

hodisasini metonimiyaning bir turi sifatida qayd etadi. A.A.Reformatskiy esa D.N.Shmelevdan farqli ravishda sinekdoxalarni alohida hodisa sifatida qayd etadi. O.Azizov ham sinekdoxani metonimiyaning bir turi sifatida qayd etadi²⁹.

Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirishning o‘ziga xos xususiyati miqdor belgisiga asoslanishidir. Sinekdoxa yo‘li bilan ma’no ko‘chirish ikki xil:

A) bir narsaning nomi sifatida unga xos biror qismning nomi ishlatiladi (qism orqali butun anglatiladi): *bosh, tuyuq, tirnoq, yostiq, yurak* (butun: *Bu otashin yurak...*) kabi. Shu o‘rinda M.Mirtojiyevning otashin yurak birikmasida *yurak* so‘zi sinekdoxa ifodasiga ega emas, balki otashin yurak birikmasi sintaktik substantivatsiyaga uchragan. Birikma sintaktik substantivatsiyaga uchragani bilan uning komponentlaridan biri sinekdoxa natijasi emas;

B) bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham o‘z ichiga olgan butunning nomi ishlatiladi (butun orqali qism anglatiladi) jonlantirilgan ob‘ektlarda shaxs tushunchasining ifodalanishi.

Jonlantirish ma’lum so‘zning leksik ma’nosini ifoda etgan jonli obyekt o‘ziga qiyoslanib, o‘xshatilib qaralgan jonsiz obyektning nomdosh qilib olishiga aytiladi. Bu jonli va jonsiz obyektlar o‘rtasidagi o‘xshashlik ham sirtqi belgi, harakat va holat xususiyati vazifasiga asoslanadi. Personifikatsiya asosan ot, qolaversa, fe‘l va sifat turkumiga oid so‘zlari vositasida yuzaga chiqadi. Demak, jonlantirishlar ham o‘xshatish asosida shakllanuvchi ko‘chim turlari sirasiga kiradi.

Shaxs tushunchasining to‘da otlar bilan ifodalanishi

A) semantik jihatdan ko‘plik ifodalovchi otlar bilan. Bular *xalq, xaloyiq, el, ulus* leksemalaridir. Shaxs tushunchasiga xos ko‘plikni morfologik ko‘rsatkich va fleksiya orqali ifoda etish. Bunda –lar ko‘rsatkichi va arabcha leksemalarda o‘zakni o‘zgartirish, ya’ni fleksiya hisobiga ko‘plik ifodalash nazarda tutilgan. Yor so‘ziga ikki marta qo‘shilgan: -on va –lar ko‘rsatkich shaklida. *Oshiq* so‘zi ushshoq shaklida ko‘plik formasiga o‘tgan.

Shaxs otlarining murojaat shakllari

G‘azallarda shaxs otlari asosan murojaat shaklida qo‘llangan. Bu kabi shakllar turlicha ifoda topgan. Chunonchi:

A) murojaat otlari tarkibida -o morfologik ko‘rsatkichi qo‘llangan bo‘lib, bu tarixiy chaqiriq kelishigi sanaladi.

Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, shaxs tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar g‘azallarda son-sanoqsiz. Ular semantik va stilistik jihatdan rang-barang. Ularni shaxs tushunchasini to‘liq ifoda etuvchilar yoki qisman ifoda

²⁹ Бу ҳақда қаранг: Миртожиев С. Ўзбек тили семасеологияси. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2010..

etuvchilar asosida tasnif etish mumkin. Qavm-qarindoshlik, kasb-hunar, martaba va nasl-nasab, qisman semantik ko'plik ifoda etuvchi otlar shaxs tushunchasini konkret ifoda etadi. Ayrim o'rinlarda inson ta'na a'zolari nomlari ham shaxs tushunchasini ifodalashi mumkin. Forsiy izofalar, ayrim mifonimlarda ham 'shaxs' semasi reallashadi. Ayrim sifatlar ham otlashuv, konversiya tufayli shaxs tushunchasini ifodalaydi. Ular *sho'x, olifta, qari, makkora* kabi leksemalarni tashkil etadi. Ko'chimning ba'zi turlari – metafora, sinekdoxa, jonlantirishlar ham predmetlarda shaxs tabiatini namoyon qiladi. SHaxs otlari she'riyatda murojaat shakliga xoslanishi mumkin. Personal birliklarda ko'plik semantikasi morfologik usulda va flektiv usulda ifodalanadi. Ikkinchi usul hozirgi o'zbek adabiy tilida me'yor sanalmasa-da, Navoiy asarlari tili uchun xarakterli. Tilning keyingi tarixiy taraqqiyotida bu usulda ko'plik hosil qilinmaydi.

Muayyan tuzilishga ega bo'lgan kichik bir sistema sifatida o'zbek tilshunosligidalarining semantik xususiyatlari monografik asosda tadqiq etilgan³⁰ bo'lishiga qaramay, bunday birliklarning Navoiy she'riyatidagi talqini va uslubiy xususiatlarini o'rganish orqali shaxs nomlarining semantik taraqqiyoti va qo'llanishidagi o'ziga xosliklarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Alloh, iloh, ilohalar va ularning atributlari haqida turli mulohazalar mavjud bo'lsa-da, teonimiya doirasiga kiradigan onomastik birliklar, ularning chegarasi va ko'lam yuzasidan izchil aytilgan fikrlar yo'q. Bu masalada uch xil chalkashlik mavjud: birinchidan, bordi-yu, teonim tushunchasi va termini ma'nosidan kelib chiqiladigan bo'lsa, teonimga faqat Alloh nomi, boshqa xil qadimiy iloh va ilohalar nomi kirishi lozim. Ikkinchidan, ba'zi ishlarda atoqli ot *Alloh (Tangri, Yaratgan, Xudoy)*, uning turli sifatlari bo'lmish: *sattor, vohid, hamid, jabbor, g'affor, qodir* va boshqalar teonim sifatida qayd qilinmoqda. To'g'ri, bular ham Allohning nomlari. Bordi-yu, ular atoqli ot deb qaraladigan bo'lsa, hozirgi imloviy qoidalarga ko'ra bosh harf bilan yozilmog'i kerak. Uchinchidan, Alloh tushunchasining dubletlari, absolyut sinonimlari bo'lmish *Ollo // Alloh, Tangri, Xudo // Xudoy, Yazdon* va boshqalar hozirda gohida kichik, gohida bosh harf bilan yozilmoqda. Ammo bu so'zlarning bosh harf bilan yozish an'anasi keyingi yillarda kuchaydi. To'rtinchidan, ba'zi ishlarda teonim, teonimiya tushunchasi asl ma'nosiga teskari ravishda har qanday diniy tushuncha va tasavvurlar atoqli otini o'zida mujassamlashtiruvchi onomastik tizim deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra, diniy *mazmunli, tabarruk, muqaddas* deb bilinuvchi *shaxslar, avliyolar*, o'tmishda sig'inish ob'ekti bo'lgan real va noreal

³⁰ Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): DDA.-Тошкент, 1999.

(xayoliy, mifologik) subyektlar, figuralar nomi ham kiritilmoqda va ular *agionim* termini bilan yuritilmoqda.

Qadimiy grek tilida teo – “Alloh” onima – “atoqli ot” ma’nolarini anglatgan. Demak, teonimiya Allohning nomi tushunchasini anglatadi. O‘zbek tilida Allohning arabcha – *alloh (olloh, ollo), allohi taolo, haq*, forsha – *xudoy, xudoyi taolo, parvardigor, yazdon, qadimiy turkiy – tangri, yaratgan* nomlari tilga olinadi. Bu nomlar diniy, badiiy va etnografik adabiyotlar matnlarida uchrab turadi.

Bundan tashqari, islomning muqaddas kitobi “Qur’on”da, shuningdek, “Hadis”larda Allohning 99 ta nomi ham keltiriladi. Bu nomlar Allohga xos bo‘lgan ulug‘ sifatlarini anglatadi. Allohning muqaddas sifatlarini bildiruvchi nomlar atoqli otdir. Chunki ular yakka-yu yagona subyektning nomi bo‘lib, ular teonimik ko‘lamga teonim atoqli ot sifatida kiradi. E.Begmatovning “O‘zbek ismlari ma’nosi” kitobida³¹ va boshqa ishlarda ham teonimlar ma’nosi izohlangan.

G‘azallarda oz miqdorda bo‘lsa-da, Alloh nomlari ham uchrab turadi. Teonimlar antroponimlarning bir ko‘rinishi sifatida qaralar ekan, Navoiy qo‘llagan bu kabi birliklar ham aynan shu o‘rinda o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir. Ular juda ham ko‘p emas. Jumladan, *tangri, (yo) rab, olloh, soqiysi davron (metaforik talqinda)* kabilar shular jumlasidandir. Bu o‘rinda *olloh-olloh* qaytarig‘i undov xarakterida bo‘lib, emotsionallik ifodalash uchun xizmat qilmoqda. *Yo rab* esa murojaat shakli sifatida chaqiriq, hayrat ifodasiga ega.

Diniy xarakterdagi antroponimlar bevosita Allohning nomi bilan hamda payg‘ambarlar va ularning avlod-ajdodi, halifalar nomi bilan bog‘liq tushunchalarga aloqador bo‘ladi. Ya.Avloqulov o‘zining o‘zbek tili anomistik birliklarining lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan ishi³²da antroponimlarning bu turi ko‘lam jihatidan ancha kengligini ta’kidlaydi.

Qur’oni Karimda 28 ta payg‘ambarning nomi tilga olingan. Yuqorida keltirilganlarga *U’zair, Luqmon, Alsay*’larning nomlari qo‘shilgan³³. Payg‘ambarlar va ularning nomi miqdori haqida turli talqinlar mavjud. N.Husanov o‘z tadqiqotida 25 ta payg‘ambarning nomini tilga olgan va ularning ma’nosini izohlagan³⁴.

Muhammad (SAV)ning *Muhammad* nomidan tashqari yana qo‘shimcha nomlari bo‘lgan. Bu nomlar diniy adabiyotlarda bosh harflar bilan yozilmoqda, ular

³¹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎМЭ, 2007. –Б.608.

³² Мамажонов М.Ю. Антропонимлар дискурс релеванти сифатида

³³ Абдулазиз Мансур, Баҳманёр Шокир. Муслмончиликдан илк сабоқлар. – Т.:Камалак, 1992. –Б.31.; Бегматов Э. Исм чиройи. – Т.: Фан, 1994.-Б.152..

³⁴ Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Т.: Ёзувчи, 1996. 1-к. –Б.21-81.

payg'ambarga xos turli fazilat (atribut)larini anglatadi. Diniy manbalarda "Alloh Taoloning 99 ismi bo'lgani kabi janob Payg'ambarimiz alayhissalomning ham 99 nomlari bor"³⁵ deyiladi³⁶. Ular quyidagilar: *Muhammad, Ahmad, Hamid, Mahmud, Hoshir, Tohur, Tayyib, Sayyid, Rasul, Nabiy, Komil, Abdulloh, Habibulloh, Safiyyulloh, Najiyyulloh, Mutavakkil, Shafiq, Bolig', Vosil, Hodiy* (asliy nomlari), *Aziz, Fozil, Mufazzal, Miftoh, Sohibulqadam, Rauf, Rahim, Sa'dulloh, Muqaddam* (qo'shimcha nomlari).

XULOSA

Shaxs tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar g'azallarda son-sanoqsiz. Ular semantik va stilistik jihatdan rang-barang. Ularni shaxs tushunchasini to'liq ifoda etuvchilar yoki qisman ifoda etuvchilar asosida tasnif etish mumkin. Qavm-qarindoshlik, kasb-hunar, martaba va nasl-nasab, qisman semantik ko'plik ifoda etuvchi otlar shaxs tushunchasini konkret ifoda etadi. Ayrim o'rinlarda inson ta'na a'zolari nomlari ham shaxs tushunchasini ifodalashi mumkin. Forsiy izofalar, ayrim mifonimlarda ham 'shaxs' semasi reallashadi. Ayrim sifatlar ham otlashuv, konversiya tufayli shaxs tushunchasini ifodalaydi. Ular *sho'x, olifla, qari, makkora* kabi leksemalarni tashkil etadi. Ko'chimning ba'zi turlari – metafora, sinekdoxa, jonlantirishlar ham predmetlarda shaxs tabiatini namoyon qiladi. SHaxs otlari she'riyatda murojaat shakliga xoslanishi mumkin. Personal birliklarda ko'plik semantikasi morfologik usulda va flektiv usulda ifodalanadi. Ikkinchi usul hozirgi o'zbek adabiy tilida me'yor sanalmasa-da, Navoiy asarlari tili uchun xarakterli. Tilning keyingi tarixiy taraqqiyotida bu usulda ko'plik hosil qilinmaydi.

Muayyan tuzilishga ega bo'lgan kichik bir sistema sifatida o'zbek tilshunosligidalarining semantik xususiyatlari monografik asosda tadqiq etilgan³⁷ bo'lishiga qaramay, bunday birliklarning Navoiy she'riyatidagi talqini va uslubiy xususiatlarini o'rganish orqali shaxs nomlarining semantik taraqqiyoti va qo'llanishidagi o'ziga xosliklarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Alisher Navoiy g'azallarini ko'zdan kechirish davomida ayrim tarixiy shaxs nomlarini ham uchratdik. Bular orasida Iskandar nomi she'riyatda ko'p qo'llanishi kuzatildi. Biroq shoh G'oziy va Sulton Husayn Boyqaro, Aflotun antroponimlarining qo'llanishini kamyob ko'rinish sifatida etirof etish mumkin.

³⁵ Имом ат-Термизий. Шамоилии Муҳаммад. –Тошкент: Меҳнат, 1991.-Б.87.

³⁶ Бекбоева Г. Ўзбек ономастикасида кўлам масаласи:МД. –Навоийб, 2012.

³⁷ Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): DDA.-Тошкент, 1999.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettiramiz va uni yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent .: Sharq, 2017.-B.29
2. Begmatov E. O'zbek tili antroponimiyasi. 1965, T .:
3. Raycvska N. Ingliz tili leksikologiyasi. Kuib, 1961, p. 102-123.
4. Begmatov E.. O'zbek tili antroponimiyasi. 1965, T .:
5. Raycvska N. Ingliz tili leksikologiyasi. Kuib, 1961, p. 102-123.
6. Qorayev B. Adabiy taxalluslar haqida.// O'zbek tili va adabiyoti, 1967, № 1. – B.51-58.
7. Abdulaziz Mansur, Bahmanyor Shokir. Islomdan birinchi saboqlar. - T.: Kamalak, 1992. –B.31 .; Begmatov E. Ismning go'zalligi. - T .: Fan, 1994.-B.152 ..
8. Avlaqulov Y. O'zbek tilining onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: NDA.- Toshkent, 2012-B.13.
9. Bafoev B. Navoiy asarlari lug'ati. –T., 1983.-B.20 WWW.Ziyounet.uz / Navoiy.uz
10. Begmatov E. O'zbek ismlarining ma'nosi. - Toshkent: O'ME, 2007. –B.608.
11. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: FAN, 1985.-B.24
12. Qorayev B. Adabiy taxalluslar haqida.// O'zbek tili va adabiyoti, 1967, № 1. – B.51-58.
13. Begmatov E., Avloqulov Y. O'zbek tili onomastikasining makromiqyosdagi tuzilishi // O'zbek tili va adabiyoti. – T. , 2007 yil, №5. B-33-39.
14. Suvonova S. Metaforalarning tasnifi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. –T., 2010, №6.
15. Ibragimova E. Badiiy vositalarning nomlanishiga oid ayrim mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. -T., 2009, № 2, -B.90.
16. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. III. - Toshkent: Fan, 1984.-B.201
17. Begmatov E., Ulug'ov N. O'zbek onomastikasi atamalarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006.-B.74.
18. Berdaq Yusuf. Klassik adabiy asarlar lug'ati. –Toshkent: Sharq, 2010. –B.186.
19. Navoiy asarlari lug'ati. Men tomman. Toshkent, 1972. 651-b.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. III jild. Toshkent: "O'ME", 2007.619-b.
21. Alisher Navoiy. Navodur ush-shabob. www.ziyouz.com kutubxonasi.
22. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Lexikologiya>
23. www.natlib.uz